



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Демирчи, Ширван Сачиузун, Шукюр Бозорк, Омер Агбаг-Нихат Байрактар, Тюркеш Мехмет Тузлу, Эртан Исмаил и др.

В целом следует отметить, что изучение иракской туркменской литературы позволило предотвратить забвение литературы, принадлежащей туркменскому народу, путем выявления забытых писателей и поэтов, изучения современных тенденций.

Литература

1. Эльман Гулиев. Иракско-туркменская литература 1-й выпуск Народный фронт, 17-20 октября. - № 104. - С. 14. 2020.
2. Газанфар Пашаев. Избранные произведения. Том I, 2012
3. Газанфар Пашаев. Избранные произведения. Том II, 2012
4. Шамседдин Кузачи. Поэты Киркука, Том III, 2012
5. Шамседдин Кузачи. Туркменская литература - после войны в Персидском заливе (1991-2003), 2005
6. Мехмет Омер Казанчи. "Искра". 1-е издание. Стамбул, 2008, 156 стр.
7. Мехмет Омер Казанчи. Velvet Leaves Research and Manuscripts 1-е издание, 236 страниц, октябрь 2022 г., Анкара
8. Международный журнал «Махмуд Кашгарлы», том 1, № 1. 2023

HOZIRGI TURKIY TILLARDA UCHRAYDIGAN VARIATIVLIK MUAMMOLARI VA TADQIQOT YONALISHLARI

Omonova Qunduz Alisher qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

3-bosqich talabasi

qunduzomonova452@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada hozirgi turkiy tillarda uchraydigan variativlik muammolari yoritiladi. Variativlik tushunchasi tilshunoslikda asosiy hodisalardan biri sifatida korib chiqilib uning fonetik, leksik, morfologik, va sintaktik darajalari tahlil qilinadi.

KALIT SO'Z: Turkiy tillar, variativlik, lisoniy variativlik, sotsiolingvistik.

Turkiy tillar oilasi dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarixiy rivojlanish yo'liga ega. Hozirgi davrda turkiy tillarda kuzatilayotgan til variativligi muammosi lingvistik tahlil va sotsiomadaniy yondashuvlar nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi. Variativlik nafaqat tabiiy til rivojining mahsuli, balki sotsiopolitik, tarixiy va geografik omillarning ham natijasidir.

АННОТАЦИЯ: В данной статье освещаются проблемы вариативности, встречающиеся в современных тюркских языках. Понятие вариативности рассматривается как одно из основных явлений в лингвистике, анализируются её фонетический, лексический, морфологический и синтаксический уровни.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Тюркские языки, вариативность, языковая вариативность, социолингвистика.

ANNOTATION: This article explores the issues of variability observed in modern Turkic languages. The concept of variability is considered one of the key phenomena in linguistics, and its phonetic, lexical, morphological, and syntactic levels are analyzed.

KEYWORDS: Turkic languages, variability, linguistic variability, sociolinguistics.



Tilshunoslikda variativlik termini til tizimi :rasida bir ma'no yoki funksiyani ifodalovchi bir nechta shakllarning mavjudligi holatini anglatadi. Bu holat tilda :miy tarzda uchraydi va tilning tirik, dinamik tizim ekanidan dalolat beradi. Variativlik ko'p hollarda tilning hududiy, ijtimoiy yoki stilistik darajadagi tafovutlari bilan bog'liq bo'ladi. Variativlik nutqiy kommunikatsiyaning barcha darajalarida – turli til fonetik va urg'u variantlariga yo'l qo'yilishini tushunib yetishigacha bo'lgan darajalarda namoyon bo'ladi. Masalan, Toshkent shahrida piyola so'zini ikki xil talaffuz qilish kuzatiladi: “pila” va “pela”. Bu fonetik variativlikka misol bo'ladi. Yoki Farg'onada narvon o'rniga shoti, Xorazmda sabzi o'rniga gashir so'zlarining qo'llanilishi leksik variativlikka misol bo'ladi.

Vositalarini bilishdan tortib, to so'zlashuvchining bir tilga tegishli turli lisoniy belgilarning shaklidagi tashqi ko'rinishidagi nomutanosiblikka, har xillikka variativlik deyiladi. Lisoniy variativlik sotsiolingvistikaning an'anaviy tarzda ko'p o'rganiladigan muammolardan biri. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan variativlik hodisasi turli til variantlarining til egalari tomonidan ijtimoiy va nutqiy muloqot sharoitlaridagi farqlarga bog'liq holda qo'llanilishi sifatida tadqiq qilinadi. Variativlikni nemis tilshunoslari individual nutqiy aktlar emas, balki so'zlashuvchilarning muayyan guruhiga xos bo'lgan, ijtimoiy o'zaro bog'langan til qo'llanishining shakllari va usullari deb izohlashadi :K.Naringzning ta'kidlashicha, til variantlari mavjudligining manbalari va sabablari haqidagi masala ,albatta til va jamiyatning o'zaro munosabatlarini aniqlashga olib keladi. Har qanday til jamoatida ijtimoiy xususiyatlar bilan bir qatorda til xususiyatlari jihatidan ham bir-biridan farqlanadigan turli guruhlar mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, turli kommunikativ vaziyatlarda kommunikativ akt qatnashchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'lgan turfa til variantlari ham qo'llaniladi.

E'tirof etish joizki, barcha til jamoatlari va tillar uchun universal bo'lgan vaziyatlar va shakllarning to'plami mavjud emas. Tilning ichki differensiatsiyasi jamiyat ijtimoiy strukturasi oqibati va ifodasi hisoblanadi. Til va nutqning ijtimoiy variativligi ikki: stratifikatsion va vaziyat o'lchovlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Stratifikatsion (lot. stratum- „qatlam“ + facere-„qilmoq“) variativlik to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy strukturasi bilan bog'liq bo'ladi. Amerikalik sotsiolingvist U. Labovning “Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikatsiyasi” nomli asarida ijtimoiy variativlikning ikki tomonlama tabiati hamda stratifikatsion va vaziyatli variativlik o'rtasidagi o'zaro aloqa atroflicha yoritib berilgan. Labov variativlikning ikki turning “:miy modeli”ni aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Bir tomondan ayrim nutqiy ko'rsatkichlar va ijtimoiy struktura (ayni nutqiy kontekstda quyi ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan informantlar yuqori ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan informantlarga nisbatan noadabiy shakllardan keng foydalagan) o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik belgilangan bo'lsa, ikkinchi tomondan barcha informantlarda rasmiy holatlarda adabiy shakllarni qo'llash ko'rsatkichini ortgani qayd qilingan. Demak, stratifikatsion va vaziyatli variativlik o'rtasida chambarchas o,,zaro



aloqa mavjud. Shuningdek, Labov ijtimoiy variantlar (lisoniy hamjamiyatning qatlam va zamonaviy kommunikatsiya vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, internet matnlari) tilga yangicha shakl va ida vositalarini olib kirib, variativlikni yanada kuchaytirmoqda. Tilshunoslikda variativlik termini til tizimi rasida bir ma'no yoki funksiyani ifodalovchi bir nechta shakllarning mavjudligi holatini anglatadi. Bu holat tilda miy tarzda uchraydi va tilning tirik, dinamik tizim ekanidan dalolat beradi. zamonaviy kommunikatsiya vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, internet matnlari) tilga yangicha shakl va ifoda vositalarini olib kirib, variativlikni yanada kuchaytirmoqda. Turkiy tillarda variativlik tabiiy hodisa bo'lishiga qaramay, u bir qator amaliy va nazariy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Til siyosati, ta'lim, tarjima, ommaviy axborot vositalari va yozma adabiyotda bu farqlarning mavjudligi muayyan noaniqliklar va murakkab bo'lmoqda adabiy til ko'pincha rasmiy, standart shakl sifatida qabul qilinadi, biroq mintaqaviy lahjalar va shevalar bu normadan jiddiy farq qilishi mumkin. Masalan, o'zbek tilining adabiy shakli toshkent shevasiga yaqin bo'lsa-da, Andijon, Buxoro yoki Qashqadaryo lahjalarida fonetik va leksik o'ziga xosliklar mavjud. Tarjima va til o'qitishdagi muammolar variativlik tarjima jarayonida so'z yoki iboralarning turli tillarda har xil ma'no anglatishi tufayli noaniqliklarga sabab bo'ladi. Masalan, kitaplik so'zi turk tilida javon (kitob qo'yiladigan joy), o'zbek tilida esa kitoblik (bilimdonlik) ma'nosida tushunilishi mumkin. Xuddi shu muammo chet elliklar uchun turkiy tillarni o'qitishda ham uchraydi. Tadqiqotchilar bu sohada yangi yondashuvlar va metodologiyalarni qo'llab, turli xil nuqtai nazarlardan tahlillar olib bormoqdalar. Quyida zamonaviy tadqiqot yo'nalishlariga to'xtalib o'tamiz. Sotsiolingvistik yondashuvlar-sotsiolingvistik variativlikni ijtimoiy kontekstda, tilning ijtimoiy qatlamlar, jins, yosh, ta'lim darajasi kabi omillar bilan bog'liq holda o'rganadi. Bu yo'nalishda tilshunoslar, masalan, turli yosh guruhlari orasidagi til farqlarini, shuningdek, tilning ijtimoiy tarmoqdagi rolini tahlil qiladilar.

Bugungi kunda variativlik masalalari quyidagi yo'nalishlarda o'rganilmoqda: Sotsiolingvistik tadqiqotlar: Ijtimoiy qatlamlar, yosh, jins, ta'lim darajasi va boshqa omillarning variativlikka ta'siri. Komparativ tahlillar: Turkiy tillararo qiyosiy tadqiqotlar asosida o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash. Dialektologiya va areallik: Turkiy tillarning lahja va shevalarini o'rganish. Normativlashtirish muammolari: Standart tilni yaratish va saqlashda yuzaga keladigan variant tanlovi. Korpus lingvistika: Elektron matnlar bazasi orqali til variantlarini statistik tahlil qilish.

Hozirgi turkiy tillarda variativlik muammolari tilda mavjud bo'lgan o'zgarishlar, tafovutlar va farqlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Tillar orasidagi fonetik, leksik, grammatik va stilistik farqlar, shKo'plab turkiy tillarda standart til va mintaqaviy/lahja variantlari o'rtasida tafovut mavjud. Bu esa ta'limda, ommaviy axborot vositalarida tushunmovchilikka olib keladi. Yechim sifatida dialektal variantlarni tanqid qilmasdan, ularni standart til :rasida izchil muvofiqlashtirish. Standart til me'yorlari bo'yicha lug'atlar, darsliklar va uslubiy qo'llanmalar yaratish. uningdek, mintaqaviy lahjalarning tilda olib borayotgan



o'zgarishlar, zamonaviy tadqiqotchilarni yangi metodologiyalar va ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga undamoqda.

Tillardagi til variativligi muammosi, har qancha murakkab bo'lmasin, bu tillarning boyligi va dinamikasining ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu muammolarga zamonaviy yondashuvlar asosida yechim topish, ayniqsa sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi va ta'lim texnologiyalari sohasidagi yangiliklarni jalb qilish orqali, turkiy tillarning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Sotsiolingvistik yondashuvlar: Til variativligining ijtimoiy qatlamlar, yosh guruhlari, shahar va qishloq joylari o'rtasidagi tafovutlar asosida shakllanishini tahlil qilish orqali tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida variativlikni o'rganish — masalan, sun'iy intellekt, avtomatik til tanish tizimlari va tarjima vositalari orqali turli variantlarni aniqlash va solishtirish — tadqiqotlarning yangi, innovatsion yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baskakov N.A. Turk tillarining tasnifi. – M.: Nauka, 1966.
2. Labov, U. "Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikatsiyasi" – Ushbu asarda tilning ijtimoiy qatlamlarga ko'ra farqlanishi va vaziyatga qarab o'zgarishi tahlil qilingan.
3. Holms J. "Sotsiolingvistikaga kirish" – Til va jamiyat o'rtasidagi munosabat, til variativligi va ijtimoiy omillarni o'rganishga bag'ishlangan.
4. Trudgill P. "Sotsiolingvistika: til va jamiyatga kirish" – Tilshunoslikda variativlik va ijtimoiy tafovutlar haqida asosiy manbalardan biri.
5. Shermatov Z. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1985.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/DGOH5043

IKKKINCHI TILNI O'QITISHDA IJTIMOIIY VA LINGVISTIK XILMA-XILLIKNI QOLLAB - QUVVATLOVCHI (EQUITABLE) YONDASHUV

Rahmatillayeva Nozima Nigmatilla qizi

Toshkentdagi Webster universiteti TESOL magistranti

raxmatillayeva.n.n@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-3632-202X>

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy holat, madaniy me'yorlar, tengdoshlarning ta'siri va ta'lim konteksti kabi ijtimoiy omillar insonlarning tildan turli holatlarda va muloqotda qanday foydalanishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu omillarni tushunish til va madaniyat jihatidan xilma-xil bo'lgan sinflar uchun dars rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu profil tadqiqot maqolasi IELTS imtihoniga tayyorlov kursida butun guruh, kichik guruhlar va individual o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun qo'llanilayotgan pedagogik strategiyalar va baholash usullarini o'rganishga qaratilgan. Sinfda O'zbekiston, Toshkent shahridagi o'quv markazida tahsil olayotgan, yoshi 13–14da bo'lgan, turli til, madaniyat va ijtimoiy kelib chiqishga ega bo'lgan 15 nafar o'quvchi mavjud. Ushbu kontekstda o'qituvchi sifatida o'quvchilarning ishtiroki, faolligi, natijalari va xatti-harakatlariga jins, etnik kelib chiqish, til interferensiyasi va madaniy omillar kabi ijtimoiy omillar qanday ta'sir qilishini chuqur tushunish muhimdir, ayniqsa IELTS kabi yuqori



<i>И «ИСТОРИИ ВЧЕРАШНЕГО ДНЯ» Л.Н. ТОЛСТОГО</i>	
<i>To'raqulova Nilufar Amirqulovna. DEGREES OF COMPARISON OF ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK</i>	498
<i>Türkan Mahmudzada. MEHMET AKIF ƏRSOY MILLI KIMLIK MƏSƏLƏSİ</i>	501
<i>Xamidullayeva Fotima Adxam qizi. XORIJIY TILNI O'RGANISHDA GAPIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</i>	506
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi. DAVLAT TILINI O'QITISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI (TOJIK TILLI MAKTABLAR MISOLIDA)</i>	513
<i>Mohinur Akhmedova Ziyodulla Kızı. ORTAK TÜRK EDEBIYATI MI, MILLÎ EDEBIYAT MI? PARADIGMALAR ARASI DENGE ÜZERINE KARŞILAŞTIRMALI BİR İNCELEME: TÜRKİYE, AZERBAIJAN VE ÖZBEKİSTAN ÖRNEĞİ</i>	519
<i>Xatirə Bayramova. QARABAĞIN FÜZULI RAYONUNUN HIDRONİMLƏRİNİN LEKSİK-SEMANTİK XÜSUSİYYƏTLƏRİ</i>	527
<i>Davletova Shalola Bahodir qizi. XORXE LUIS BORXES ASARLARIDA EKZISTENSIALİZM</i>	536
<i>Ismailova Gulnoza Odiljon qizi. A CATEGORIZED AND STATISTICAL EXAMINATION OF RELIGIOUS TERMINOLOGY IN KUTADGU BILIG</i>	539
<i>Ro'ziyeva Aziza Bobirovna, Abdusattorova Xadicha Xusanboy qizi. 10-11-SINF O'QUVCHILARIGA SUN'YI INTELLEKT ORQALI MATN YOZISHNI O'RGATISH</i>	548
<i>Валида Шухалиева Надир кызы. НОВЫЕ ПОЭТИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ИРАКСКО-ТУРКМЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ</i>	553
<i>Omonova Qunduz Alisher qizi. HOZIRGI TURKIY TILLARDA UCHRAYDIGAN VARIATIVLIK MUAMMOLARI VA TADQIQOT YONALISHLARI</i>	559
<i>Rahmatillayeva Nozima Nigmatilla qizi. IKKKINCHI TILNI O'QITISHDA IJTIMOYIY VA LINGVISTIK XILMA-XILLIKNI QOLLAB - QUVVATLOVCHI (EQUITABLE) YONDASHUV</i>	562
VI SHU'BA. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI	
<i>Tursunoy Yusupova Axmedovna. O'QUVCHILAR NUTQIY KOMPETYENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY OMILLARNING O'RNI</i>	576
<i>Shodmonova Munira Burxonovna. TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK-DIAGNOSTIK METODNING O'RNI</i>	579
<i>Kuldasheva Sanobar Xayotovna. RAQAMLI TEXNOKRATLASHUV SHAROITIDA QO'SHMA GAPLARNI O'QITISH USULLARI</i>	587
<i>Iskandarova Gulbahor Turabayevna. XORIJLIK LARNING O'ZBEK TILINI O'RGANISHIDA SO'Z MA'NOLARINING O'ZLASHTIRISHI</i>	592

